

MAQSUD SHAYXZODANING “MIRZO ULUG‘BEK” TRAGEDIYASI VA ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANI QIYOSIY TAHLILI

Muxtasarova Sevinch

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: ZiyodullayevaDilafro‘z

Annotatsiya: *Maqolada “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi va Odil Yoqubovning
“Ulug‘bek xazinasini” romanining qiyosiy tahlili undagi asosiy qahramon Mirzo
Ulug‘bek haqida va ikkala yozuvchining qarashlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Tragediya, roman, proza, janr, Mirzo Ulug‘bek, obraz.*

Avvalo “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi adolatli shoh va buyuk falakiyot ilmi sohibi, olim Ulug‘bek hayoti va faoliyatini barcha murakkab tomonlari bilan: ziddiyatli, to‘qnashuvlar asnosida, uzoq o‘tmishdagi tarixiy haqiqatni yaqqol badiiy shaklda qayta tiklashga bag‘ishlangan. Ushbu asarda shoh va olimning obrazi tasvirida mujassam bo‘lgan ezgu hislatlar, o‘ziga xoslik va badiiy mahorati xususida so‘z boradi. Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. Maqsud Shayxzodaning yozuvchilik shuuri va ijodkorlik zehning o‘tkirligi yana bir bor isbotlandi. Maqsud Shayxzodaning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan yana bir ulkan hissasi “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidir. Tragediya 1964-yili yozildi, o‘sha yili asar Hamza teatri sahnasida qo‘yildi, keyinchalik uning asosida kinofilm yaratildi. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida Maqsud Shayxzoda bosh qahramon obrazini Amur Temur va Temuriylar davrida o‘zbek xalqi hayotida ro‘y bergan Uyg‘onishning yorqin timsoli sifatida aks ettirgan. Shekspirona uslubda yozilgan bu asarda Shayxzoda Ulug‘bek hayotining so‘nggi 2 yilini tasvirlash orqali uning jahon fani tarixida munosib o‘rin egallagan mashhur olim, adolatparvar va haqiqatparvar davlat arbobi va ayni paytda saltanatning mutaassib kuchlari oldida ojiz bir inson bo‘lganini ham haqqoniy ko‘rsatgan. Shekspirona ko‘lam va harorat bilan yozilgan “Mirzo Ulug‘bek”

tragediyasining maydonga kelishi o‘zbek dramaturgiyasi va teatr tarixida katta voqea bo‘ldi. Boshidan qanchadan-qancha musibat kunlar o‘tgan bo‘lsa ham u hech zorlanmagan, u hech qachon alamzadalik bilan yashamadi, aksincha unga hiyonat qilgan uni azob uqubatlarga, jiddiy hastaliklarga duchor qilganlar haqida hech qayerda hech narsa demagan. Shayxzoda o‘zining insoniy fazilatlariga sodiq qolib, doim hayrihohlik va balandlik hislari bilan yuksalib yashadi. Endi „Mirzo Ulug‘bek“ romaniga to‘xtalsak. O‘zbek adabiyotining iste‘dodli namoyondasi, so‘z san‘atkori Odil Yoqubov bir qator asarlari bilan nasr taraqqiyotda katta va o‘chmas iz qoldirdi. Adibning „Ko‘hna Dunyo“ romanida Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy obrazlari yaratilishi bilan uzviylikda, ular yashagan murakkab davr muhiti, uning inson ruhiyatiga ta‘siri talqin etilgan. „Ulug‘bek xazinasi“ romanida esa Mirzo Ulug‘bekning umrini so‘ngi damlaridagi tarixiy ziddiyatlar ifodalangan. Romanda Ali Qushchining hayoti, ijodi, amalga oshirayotgan ishlarining Mirzo Ulug‘bek hayoti bilan bog‘liqligi haqidagi talqinlar haqida so‘z yuritiladi. Roman sujetidan o‘rin olgan voqealar silsilasida Mirzo Ulug‘bek va o‘z farzandi Abdulatif o‘rtasidagi ziddiyatlardan istirob chekkan shaxs qismati, farzandining taxt uchun o‘z otasiga qarshi kurash boshlashi, bundan ruhlangan ba‘zi saroy amaldorlarining xiyonatlari tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan talqin etilganligiga jiddiy e‘tibor qaratilgan. Tarixiy faktlardan oziqlangan Odil Yoqubov romanda Mirzo Ulug‘bek va o‘g‘li Mirzo Abdulatif ziddiyatlaridan, uning toj-taxt uchun olib borayotgan kurashlaridan istirob chekayotgan xalq hayoti, uning murakkablashish jarayoni, podshohlikdagi kurashlardan ozor chekkan xalq fojealari juda asosli ifodalangan. Odil Yoqubovning „Ulug‘bek xazinasi“ romanidagi talqinlar badiiy adabiyotda Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchi o‘rtasidagi insoniy munosabatlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Har ikki buyuk siymoning badiiy obrazi juda asosli talqin etilganligini isbotlaydi.

Maqsud Shayxzodaning „Mirzo Ulug‘bek“ tragediyasi va Odil Yoqubovning „Ulug‘bek xazinasi“ romani ikki xil janrda yozilgan bo‘lsa-da, ular Mirzo Ulug‘bek siymosini tasvirlash, uning ilm-fan va ma‘naviyatdagi o‘rni, shaxsiy fojiasi hamda tarixiy ahamiyatini yoritishda o‘ziga xos yondashuvlarni aks ettiradi. Quyida ularning qiyosiy tahlili keltirilgan:

1.Asarlarning janri va uslubi: „Mirzo Ulug‘bek“ tragediyasi: Janri – dramatik tragediya.

Asar sahnalashtirish uchun mo‘ljallangan va dialoglar orqali voqealar rivoji yoritiladi.

Emotsionallikka, dramatik keskinlikka urg‘u beriladi. Shayxzoda asarida Ulug‘bekning fojeaviy qismati, ya’ni ilm yo‘lidagi kurashining ijtimoiy va oilaviy ziddiyatlar bilan to‘qnashuvi markaziy o‘rinni egallaydi.

2. “Ulug‘bek xazinasini” romani:

Janri – tarixiy roman.

Proza janrining imkoniyatlari orqali voqealar kengroq yoritiladi. Asarda shaxslararo munosabatlar, ichki kechinmalar, tarixiy jarayonlar batafsil tasvirlanadi. Odil Yoqubov o‘quvchini Ulug‘bekning nafaqat shaxsiy fojiasi, balki uning ilmiy va ma’naviy merosining bugungi kun uchun ahamiyati bilan tanishtiradi.

Mirzo Ulug‘bek obrazi yozuvchilar talqinida

Maqsud Shayxzoda:

Ulug‘bek siymosini kuchli fojeaviy shaxs sifatida ko‘rsatadi.

U ilm-fanni din va siyosat bilan ziddiyatga olib keladi.

Asarda Ulug‘bek o‘z davrining qarama-qarshiliklariga bardosh bera olmay, shaxsiy va oilaviy fojia qurboniga aylanadi.

Odil Yoqubov:

Ulug‘bekning ilmiy merosiga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

U o‘z davrining buyuk olimi va davlat arbobi sifatida tasvirlanadi. Romanda Ulug‘bekning shaxsiy hayotidagi ziddiyatlar bilan birga, uning ilm-fan sohasidagi muvaffaqiyatlari va o‘lmas xazinasini yoritiladi.

Xulosa: Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi va Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” romanining o‘ziga xosligi ularning janr, mazmun va uslubiy yondashuvlarida namoyon bo‘ladi. Agar Shayxzoda Ulug‘bekning fojeaviy qismatini dramatik tarzda yoritgan bo‘lsa, Yoqubov uning shaxsiyati va ilmiy merosini tarixiy va falsafiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qiladi. Shu tariqa, har ikki asar Mirzo Ulug‘bek siymosini har tomonlama anglash va qadrlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Innovative Academy RS <https://in-academy.uz> › articlePDFMAQSUD SHAYXZODA VA “MIRZO ULUG’BEK” TRAGEDIYASI
2. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. –Тошкент, «Фан», 1992, 56-бет
3. Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1980, 111-бет.
4. <https://www.wikipedia.org/>